AJ «Uzbekistan airways»

# AJ «Uzbekistan airways» saytida aviachiptalarni bron qilish va sotib olish bo'yicha ko'rsatma

"Uzbekistan airways" Aksiyadorlik jamiyati yo'lovchilarga aviabiletlarni o'zlari mustaqil bron qilish va sotib olishlarini taklif qilmoqda.

Ushbu xizmat 18 yoshdan oshgan shaxslar uchun amal qiladi.

Veb-saytimizda aviabilet bron qilish va sotib olish uchun siz bir necha oddiy amallarni bajarishingiz kerak:

1. Saytning asosiy sahifasida yo'nalish, jo'nab ketish sanasi, "Bir tomonga" yoki "Borish-qaytish" parvozini tanlash, yo'lovchilar sonini va to'lov shaklini belgilash, so'ngra "Biletni sotib olish" tugmasini bosish zarur.




2. Keyin Sizga tanlangan sana bilan yaqin yoki mos keladigan parvozlar ro'yxati taqdim etiladi.

Ushbu yo'nalishda qatnovlar amalga oshirilmaydigan kunlar och rangda belgilangan.




3. Mavjud qoidalar bilan tanishib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

4. Sizni qiziqtirgan klass turini tanlang.







5. Shaxsiy ma’lumot shaklini ehtiyotkorlik bilan to‘ldiring (pasport ma’lumotlari fotosurat joylashgan sahifadan kiritiladi), shuningdek, zaruriy aloqa ma’lumotlarini taqdim eting. Aloqa telefon raqami namunaga muvofiq – 9 ta raqam bo‘sh joysiz kiritiladi. Barcha ma’lumotlar to‘g‘ri kiritilganligiga ishonch hosil qiling, so‘ngra "Bron qilish" tugmasini bosing.




Iltimos, unutmang, aviakompaniya tanlangan yo‘nalishda parvozlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pasportlar, vizalar va boshqa hujjatlarning haqiqiyligiga javobgar emas.

6. Aviabiletingiz haqidagi barcha ma'lumotlar ochilgan sahifada.

Iltimos ahamiyat bering,aviabilet to‘lovi 30 daqiqada ichida amalga oshirilishi zarur.

## To‘lov

Iltimos, kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va haqiqiyligini tekshirib ko‘ring!

**OYBEK YUSUPOV**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Tug‘ilgan sanangiz: | 18-04-2007 | Fuqarolik: | O'zbekiston |
| Jinsingiz: | Erkak | Pasport seriyasi №: : | AA1112233 |
| Chipta: | Katta yoshli | Berilgan sana: | 24-06-2019 |
| | | Gacha haqiqiy: | 08-08-2024 |

Цена билета: 99283 UZS

**Данные о бронировании**

Buyrutma:
863893077

Jami to`lanadigan summa:
99 283,00 UZS

Haq to'lanmaganda bronlash dan so'ng bekor qilinadi.:
00:28:15

## Kontakt ma’lumotlari

Telefon: +998991112233

E-mail: TEST@TS.ST

Ketish, Toshkent → Samarqand, 04-10-2019
HY 045

UZBEKISTAN airways

03:10 04:05

Iqtisodiy, L

## Qo‘shimcha ma’lumotlar:

Tarifni qo‘llash qoidalari

**Toshkent, (TAS), O`zbekiston → Samarqand, (SKD), O`zbekiston**

Yo‘nalish o‘zgartirilganda/ism o‘zgartirilganda chiptani qaytadan yozish: 29 784,00 UZS

Chiptani bekor qilish/qaytarib berish: 59 568,00 UZS

Agar umuman foydalanilmagan, chipta qaytarilsa, yo‘lovchiga tashuv uchun to‘langan summadan, agar tarifni qo‘llash qoidalarida chipta qaytarilganligi uchun jarima yig‘imlari ushlab qolish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, shunday jarima ushlab qolingan holda qolgan summa qaytarib beriladi. Har xil turdagi tariflarni qo‘llagan holda rasmiylashtirilgan aviachipta umuman foydalanilmasdan qaytarilganda, eng cheklangan tarif uchun amal qiladigan jarima sanksiyalari qo‘llaniladi.

Batafsil

orqali to‘lash: CLICK Payme

Iltimos, to‘lovni amalga oshirishdan oldin tarifni qo‘llash Qoidalari bilan tanishib chiqing. Hisobingizda aviabilet sotib olish uchun yetarli mablag borligiga, shuningdek, SMS-ma’lumot va 3D Secure (xalqaro Visa, MasterCard va boshqalar uchun) funktsiyalariga ulanganingizga ishonch hosil qiling. To‘lvni milliy valyutada amalga oshirish uchun Click yoki Payme to‘lov tizimidan foydalaning.




Visa yoki MasterCard xalqaro to‘lov tizimlari orqali to‘lovni amalga oshirish uchun tegishli tugmani tanlang:






7. Aviabilet to‘lovini amalga oshirish uchun kartochka raqami va amal qilish muddatini (plastik kartada ko‘rsatilgan), shuningdek, karta egasining nomi va CVC2/CVV kodini (faqat Visa va MasterCard kartalari uchun) ko‘rsatish zarur.

8. Barcha shartlar to‘g‘ri bajarilgan holda, siz ko‘rsatgan elektron pochta manziliga yo‘nalish kvitantsiyasi yuboriladi.

Ma’lumot uchun telefon:

**(+998 78) 140-02-00**